



MAKTAB VA O‘SMIRLAR MUHITIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TA’SIRI VA KIBERBULLING MUAMMOSI

Muallif: G‘afforova Madixa Ixtiyor qizi¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti o‘qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17349783>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktab va o‘smirlar muhitida raqamli texnologiyalarning ta’siri hamda kiberbulling muammosi yoritilgan. O‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, kiberbulling tushunchasi, uning shakl va xususiyatlari, ta’sir mexanizmlari hamda oqibatlarini ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, A.A. Bocharev tasnifi asosida kiberbulling ishtirokchilari turlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari kiberbullingning o‘smirlar orasida keng tarqalganini va ularning ruhiy salomatligi, shaxsiy identiteti hamda ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, bulling, kiberbulling, maktab muhiti, zo‘ravonlik, raqamli texnologiyalar, ijtimoiylashuv, ruhiy salomatlik, pedagogik-psixologik profilaktika.

KIRISH

Longityud tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalik davrida shakllanadigan tajovuzkorlik keyingi hayot davomida ham barqaror xususiyat sifatida saqlanib qoladi. Ushbu izlanishlarda tajovuzkor xulqning darajalari va ularga ta’sir qiluvchi omillar aniqlangan. Ularga oilaviy tarbiyaning o‘ziga xos jihatlari, o‘smirlar ommaviy axborot vositalarida, televideniye yoki kompyuter o‘yinlarida kuzatadigan tajovuz namunalari, hissiy tanglik va frustratsiya darajasi kiradi. Shu bois, maktabdagi zo‘ravonlik – bu o‘quvchilar orasida namoyon bo‘ladigan tajovuzkorlikning shakli bo‘lib, maqsad jabrlanuvchiga jismoniy zarar yoki psixologik jarohat yetkazishdir.

ASOSIY QISM

Bulling tushunchasi va tarixiy talqinlar. D.Olveus 1993-yilda bullingga birinchi ta’rif bergan bo‘lib, uni “qasddan, muntazam ravishda takrorlanadigan tajovuzkor xatti-harakat, kuchlar notekisligi yoki ijtimoiy ustunlikka asoslangan zo‘ravonlik” sifatida izohlagan [8, 115-b]. Skandinaviya olimlari A.Pikas, Ye.Roland va P.P.Xayneman esa maktab zo‘ravonligini “ta’qib, kamsitish va doimiy bosim” sifatida ta’riflagan [2, 120-b]. Adabiyotlarda bu atama haqida ilk eslatmalar I.S.Kondada uchraydi. Unga ko‘ra, “bulling (bully – qo‘pol, bezori, urishqoq) — bu qo‘rqitish, jismoniy yoki psixologik tazyiq bo‘lib, boshqa shaxsda qo‘rquv uyg‘otib, uni o‘ziga bo‘ysundirishga qaratilgan” [3, 68-b].

Bulling hodisasi qadimdan mavjud bo‘lsa-da, uning ilmiy o‘rganilishi nisbatan yangi hisoblanadi. Masalan, 1997-yilda AQShda birinchi marta ushbu muammo chuqur tahlil qilina boshlagan. O‘sha davrda faqat bir nechta shtatda maktabdagi zo‘ravonlikka qarshi rasmiy me’yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan edi. Tadqiqotchilar

an'anaviy bulling hali ham kiberbullingga qaraganda kengroq tarqalganini qayd etganlar.

Mashhur "Kolumbayn" maktabidagi fojiali voqeadan so'ng kiberbulling masalasi yanada dolzarb bo'lib qoldi. Ikki nafar yuqori sinf o'quvchisi Xarris va Klibold tomonidan sodir etilgan ommaviy otishmada 37 kishi jarohat olgan, 13 kishi halok bo'lgan. Tergov natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu o'smirlar muntazam ravishda haqorat va tahqirlarga duch kelgan, internet orqali ham kiberzo'ravonlikka uchragan. Bu ularning jamiyatga qarshi keskin g'azabini kuchaytirgan va fojiali oqibatlariga olib kelgan. Shundan so'ng maktab muhitidagi zo'ravonlikka federal darajada e'tibor qaratila boshlandi.

Bulling ko'pincha guruhli jarayon sifatida ta'riflansa-da, ayrim olimlar uni yakka shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkinligini ham ta'kidlashadi. Agar ilgari maktab bezoriligi asosan jismoniy yoki og'zaki shakllarda namoyon bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda kiberbulling yanada murakkab ko'rinishga ega: u axloqiy va psixologik bosim, ijtimoiy izolyatsiya, majburlash va qo'rqitishni o'z ichiga oladi.

Internet rivoji tufayli kiberbulling nafaqat o'smirlar, balki kattalar orasida ham uchramoqda. Kiberzo'ravonlik qurboni bo'lgan kattalar o'z hayotini nazorat qila olmayotgandek his qiladi, o'ziga bo'lgan ishonchi susayadi, ish qobiliyati pasayib ketishi mumkin. Ko'pincha kattalar buni tan olishdan qo'rqadi va yordam so'ramaydi.

Internet paydo bo'lishidan oldin, maktabdagi tahqir o'quvchi uchun xavfsiz joy – uyga qaytganda tugagan bo'lsa, hozirda virtual tarmoqlar tufayli bu jarayon uzluksiz davom etadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tahqirli xabarlar, fotosuratlar, yolg'on ma'lumotlar tarqatilishi keng tarqalgan.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning muayyan qismi (taxminan uchdan biri) kiberbulling jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etgan. Ko'pchiligi bu haqda ota-onalari yoki do'stlariga aytadi, biroq aksariyat hollarda e'tiborsiz qoldirishga harakat qilishadi. Kiberbulling qurbonlari ko'pincha past o'zini baholash, xavotir va ijtimoiy qo'rquvni boshdan kechirishadi.

Qizlar ham, o'g'il bolalar ham teng darajada kiberbulling qurboni bo'lishi mumkin, biroq tajribalar shuni ko'rsatadiki, viktimlikka moyillik, ya'ni jabrlanuvchilikka yaqinlik, ko'proq psixologik xususiyatlar va ijtimoiy rol bilan bog'liq. Jabrlanuvchanlik shaxsning tashqi omillarga ko'proq bog'liqligi, past o'zini baholash, qaror qabul qilishda mustaqillik yetishmasligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar maktab va o'smirlar muhitida zo'ravonlikning yangi bosqichini yuzaga keltirdi. Kiberbulling nafaqat o'quvchilarning psixologik salomatligiga, balki ularning ta'limdagi muvaffaqiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ota-onalar, o'qituvchilar va mutaxassislar birgalikda chora ko'rishi, xavfsiz virtual muhit yaratishga e'tibor qaratishi zarur.

O'smirlar orasida ta'qib va tajovuz muammosi barcha davrlarda dolzarb bo'lib kelmoqda. Bu holat, asosan, o'smirlik davrida ijtimoiy vaziyatning tubdan o'zgarishi, organizmda fiziologik va gormonal qayta shakllanish jarayonlarining tez sur'atlarda kechishi, shuningdek, faoliyatning yetakchi turi o'zgarishi bilan bog'liq. Ko'plab manbalarda ushbu bosqich "o'tish davri" deb ataladi. Bu nom bejiz emas, chunki o'smir hayotining barcha jabhalarida bolalikdan kattalik sari o'tish bir vaqtda amalga oshadi. O'z o'rnini jamoada topish, qobiliyatlarini ko'rsatish, kuchini sinab ko'rishga bo'lgan ehtiyoj, ammo tajribaning yetishmasligi sababli, boshqa yosh bosqichlariga qaraganda ko'proq ijtimoiylashuvdagi buzilishlarga olib keladi. Bu esa ko'pincha xulq-atvordagi og'ishlarda, jumladan bulling hodisasida namoyon bo'ladi.

2019-yilda Moskva maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalarida respondentlarning 71,6 foizi kiberbullingga duch kelganini aytishgan. Bu esa tadqiqotchilarni kiberbullingni zamonaviy maktab o'quvchilarining kundalik hayotiy tajribasining bir qismi deb hisoblashga olib keldi [4, 74-b]. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish kiberbullingning tez sur'atlarda kengayib borayotganini ko'rsatadi. U yangi ko'rinishlar kasb etmoqda, turli platformalarda faol tarqalmoqda va salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shuning uchun kiberbulling masalasi bugungi kunda eng dolzarb muhokama mavzularidan biridir.

Bullingning asosiy belgilariga takrorlanish, maqsadga yo'naltirilganlik, salbiy xarakter va kuchlarning notengligi kiradi. Chet ellik tadqiqotchilar kiber hujumni "elektron muhitda amalga oshiriladigan, jabrlanuvchini kamsituvchi va obro'sizlantiruvchi ma'lumotlarni tarqatish bilan bog'liq tajovuz" sifatida talqin qiladilar [1]. P.K.Smit esa uni "muayyan vaqt davomida shaxs yoki guruh tomonidan elektron vositalardan foydalanib, himoyalani ulgurmaydigan jabrlanuvchiga nisbatan amalga oshiriladigan qasddan zo'ravonlik" deb ta'riflaydi [7, 43-b].

A.I.Cherkasenkoning fikricha, kiberbullingning maqsadi — "jabrlanuvchining hissiy barqarorligini izdan chiqarish yoki uning ijtimoiy munosabatlarini buzish"dir [1]. Kiberbulling xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Anonimlik — hujumchi ko'pincha yashirin qoladi;
- Qulaylik — istalgan qurilma orqali ijtimoiy tarmoqlar va forumlarga kirish mumkin;
- Xarajatning yo'qligi — ko'plab platformalar bepul.

Bugungi kunda turli ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarda odamlar anonim ravishda kamsituvchi xabarlarini yozishi mumkin. Natijada qurbon keng auditoriya oldida tahqirlanadi. A.A.Bocharev o'z tadqiqotida kiberbulling bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarni to'rt guruhga bo'ladi:

1. Avval bulling qurboni bo'lgan va qasos olishni istovchilar ("Qasos farishtasi").
2. Kuch va hokimiyat orqali obro' topishni xohlaydiganlar ("Hokimiyatga chanqoq").
3. O'yin-kulgi sifatida boshqalarni haqorat qiluvchilar ("Ko'ngilocharlar").

Ta'qibni anglamagan holda zarar yetkazuvchilar ("Beixtiyor ishtirokchi"). [1, 123-b].

TADQIQOT VA NATIJALAR

Kiberbulling bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotlar ko'rib chiqilishi bizga "jabrlanuvchilar" va "tajovuzkorlar"ning psixologik xususiyatlarini quyidagi ko'rsatkichlar asosida tizimlashtirish imkonini berdi: qurbonlikka moyillik; tomonlarning muloqot qobiliyatlari; dushmanlik va agressivlik darajasi; ijtimoiy maqom (sotsiometrik holat); emotsional-psixologik xususiyatlar; nizoli vaziyatlarda o'zini tutish strategiyalari. E'tirof etish kerakki, tadqiqotchilar ko'proq kiberbulling "qurboni"ni batafsil tavsiflab, guvohlarni hamda "hujumchilar"ni yetarlicha yoritmaganlar. Bu holat kiberbulling ishtirokchilarining psixologik tomonlari chuqur o'rganilmaganidan dalolat beradi va shu bilan izlanishimizning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Kiberbullingni tashkillashtiruvchilar va amalga oshiruvchilar jismonan va axloqan kuchli bo'lsalarda, intellektual jihatdan yetuk bo'lmagan bolalar hisoblanadi. Ular shu yo'l bilan o'zlarining aqliy va ijtimoiy ojizligini yashirishga urinadilar. An'anaviy maktab bezoriligi davrida ham aynan jismoniy kuch ustun bo'lgan.

Endilikda esa internetdan “bulling vositasi” sifatida foydalanish va jazodan chetda qolish uchun aqliy yetuklik, fikrlashning moslashuvchanligi talab etiladi. Bunda zarar, asosan, psixologik ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: o‘zini haddan ortiq sevish (narsissizm), maqsad sari har qanday yo‘l bilan intilish, empatiya yetishmasligi, buzilgan axloqiy mezonlar, rahbarlikka yoki arzon obro‘-e‘tiborga o‘chlik, tajovuzkorlik, hukmronlik, printsipsizlik va kinoyabozlik.

Har qanday zo‘ravonlikning psixologik oqibatlari yillar davomida sezilishi mumkin. Jabrlanuvchi o‘smirlar voyaga yetgach ko‘pincha uyqusizlik, ruhiy muvozanatsizlik, shubha va xavotir, tushkunlik hamda o‘z joniga qasd qilish kabi xulq-atvorlarga moyillik ko‘rsatadilar. “Maktab bezorilari”ning o‘zlari ham deviant xatti-harakatlarining oqibatida aziyat chekadi: ular ulg‘aygach, yolg‘izlikka mahkum bo‘lish ehtimoli yuqori, chunki bulling ularning shaxsiyatida narsissizm, qattiqqo‘llik, avtoritarlik, ustunlik kompleksi kabi salbiy sifatlarni shakllantiradi. O‘smirlikdagi tajovuzkor xatti-harakatlar odatda ijtimoiy moslashuvda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi – masalan, oila yoki ish joyida.

Bullingning guvohlari ham bundan chetda qolmaydi – kelajakda ular hissiy muvozanatsizlik, kayfiyat o‘zgarishi, asabiylik, ishonchsizlikdan aziyat chekishlari mumkin. Ular hayot davomida o‘z “raqamli makoni”ni doim himoya qilishga intiladilar, guruhni uchrashuvlardan qochadilar, mobil xabar yoki elektron maktublarni olishda ortiqcha xavotir sezadilar.

Londondagi Qirollik kolleji tadqiqotchilari olib borgan kuzatuvlar bunga dalil bo‘la oladi. Angliya, Shotlandiya va Uelsda 7 va 11 yoshida bullingda ishtirok etgan, qurbon bo‘lgan yoki guvoh bo‘lgan bolalar ustidan kuzatuv o‘tkazilib, keyinchalik 23, 33, 42, 45 va 50 yoshida ularning psixologik va ijtimoiy holati qayd etilgan. Amerika psixiatriya jurnalida chop etilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, maktabda muntazam ravishda bulling qurboni bo‘lganlar kattalashgach, ko‘pincha ruhiy tushkunlik, asabiy buzilishlar va o‘z joniga qasd qilishga moyillikni namoyon etgan. Ularning mehnat faoliyatida muvaffaqiyati kam, daromadlari past, ishsizlik xavfi yuqori. Shaxsiy hayotda esa ko‘pincha do‘stlari yoki oilasi bo‘lmagan holda yolg‘iz yashashgan. Demak, “bolalikdagi xafagarchiliklar” keyinchalik kattalikdagi jiddiy muammolarga aylanadi.

So‘rovnomamizda turli davrlarda tahsil olgan TIU va E universitetlari talabalaridan 53 nafar ishtirokchi qatnashdi. Tadqiqotning maqsadi – muammoga e‘tibor qaratish, uning dolzarbligini ko‘rsatish, savollar doirasini belgilash va keyingi izlanishlar uchun ma‘lumot to‘plash edi. So‘rovnoma talabalarning shaxsiy tajribalari va xotiralariga asoslandi. Tabiiyki, kichik noqulayliklar tezda unutiladi, biroq uzoq muddatli va takroriy kiberbulling inson ruhiyatida chuqur iz qoldiradi.

Natijada, 53 kishidan 37 nafari kiberbulling qurboni bo‘lganini aytib o‘tdi. Ulardan 37 foizi tez-tez, 20 foizi esa har kuni tarmoqda bullingni boshdan kechirganini tan oldi. So‘rov natijalari o‘g‘il va qizlarning kiberbulling xavfiga teng darajada duchor bo‘layotganini ko‘rsatdi.

O‘smirlarning asosiy ijtimoiy hayoti internet tarmoqlarida kechadi. Ulardan Facebook, Twitter, Instagram va YouTube eng ommabop hisoblanadi. Shu tarmoqlardan Facebook va Twitter kiberbulling uchun eng qulay platforma sifatida qayd etildi. Facebook foydalanuvchilarining 54 foizi ushbu tarmoqda kiberhujumga duch kelganini tasdiqladi.

O‘smirlar ko‘p vaqtini maktabda o‘tkazgani bois, kiberbulling o‘qishdagi qiyinchiliklar va intizom muammolari bilan birga kechadi. Shu sababli pedagoglarning roli juda muhim.

Pedagoglar kiberbulling aniqlanganda:

- Jabrlanuvchi ota-onasini ogohlantirishlari;
- Maktab ma'muriyatiga xabar berishlari;
- Ishtirokchi o'quvchilar ota-onalari bilan uchrashishlari;
- Suhbatlar, sinf soatlari va bag'rikenglik mashg'ulotlari o'tkazishlari;
- Psixologlarni jalb etishlari;
- Media savodxonligini oshirishlari lozim.

Yakutiya da 154 nafar o'smir (98 nafar yigit va 56 nafar qiz) o'rtasida 10 savoldan iborat so'rovnoma o'tkazilgan. Javob variantlari: "ha", "ba'zan", "yo'q".

1-jadval. So'rovnoma natijalari

Savol №	"Ha" soni	"Ha" %	"Ba'zan" soni	"Ba'zan" %	"Yo'q" soni	"Yo'q" %
1	50	32,4	71	46,1	36	23,4
2	14	21,6	37	24,0	89	57,8
3	54	35,1	85	55,2	14	21,6
4	11	16,9	86	55,8	50	32,4
5	16	24,6	65	42,2	71	46,1
6	31	47,7	79	51,2	43	27,9
7	9	13,9	88	57,1	68	44,2
8	12	18,5	57	37,0	85	55,2
9	0	0	66	42,9	88	57,1
10	6	9,2	43	27,9	90	58,4

So'rov natijalariga ko'ra, ishtirokchilarning 32,5 foizi turli darajada kiberbulling qurboni bo'lgan, 16,9 foizi esa ular haqida yolg'on ma'lumot tarqatilganini bildirgan. Ko'pchilik bunday vaziyatlarni WhatsApp yozishmalarida ko'rgan. Shuningdek, respondentlarning 21,6 foizi kamida bir marta haqoratli xabar yuborganini tan olgan. 47,7 foizi esa tanishlarining shaxsiy ma'lumotlari tarqatilganiga guvoh bo'lgan. Bunday vaziyatlarda ota-onalarni jalb qilish muhim. Ular farzandlarining xulqidagi o'zgarishlarga e'tibor qaratishi, internetdagi faoliyatini nazorat qilishi kerak. Zarurat tug'ilganda ijtimoiy tarmoqlar administratorlariga, maktab rahbariyatiga yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilishlari zarur.

XULOSA

Shunday qilib, kiberbulling muammosi o'smirlar orasida keng tarqalgan bo'lib, uni oldini olish uchun tizimli, interaktiv va yoshlar uchun qiziqarli profilaktika ishlari olib borilishi lozim.

Demak, kiberbulling nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy muammo sifatida ham o'rganilishi lozim. Bu esa ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislarining birgalikdagi profilaktik hamda psixologik yordam choralari ishlab chiqishi zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yoshlarning raqamli madaniyatini oshirish, onlayn xavfsizlikni mustahkamlash va ijtimoiy tarmoqlarda sog'lom muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бочарев А.А. Кибербуллинг: травля в пространстве современных технологий / А.А. Бочарев // Психология. Журнал ВШЭ. – эл. ресурс. – <https://cyberleninka.ru/>
2. Ермолова Т.В. Буллинг как групповой феномен: исследование буллинга в Финляндии и скандинавских странах за последние 20 лет / Т.В. Ермолова, Н.В. Савицкая // Современная зарубежная психология. – 2015. – Т.4. – №1 – С. 65-90.
3. Кон И.С. Что такое буллинг? Как с ним бороться? / И.С. Кон // Семья и школа. – 2006. – №11 – С. 15-18.
4. Хломов К.Д. Кибербуллинг в опыте российских подростков / К.Д. Хломов, Д.Г. Давыдов, А.А. Бочавер // Психология и право. – 2019. – Т. 9. – №2. – [<https://psyjournals.ru/>] Зиновьева Н. О., Михайлова Н. Ф. *Психология и психотерапия насилия. Ребенок в кризисной ситуации.* – СПб.: Речь, 2003. – 352 с.
5. Малкина-Пых И. Г. *Психология поведения жертвы.* – М.: Эксмо, 2006. – 1008 с.
6. Профилактика школьного буллинга: Методические материалы / Автор-составитель А. Ненашева. – Южно-Сахалинск, 2015. – 56 с.
7. Olweus D. *Bullying at School.* – Oxford, UK: Blackwell, 1993. – 140 p.
8. Mehari K. R., Farrell A. D., Le Anh-Thuy H. Cyberbullying among adolescents: Measures in search of a construct // *Psychology of Violence.* – 2014. – V. 4 (4). – Pp. 399–415.
9. Wigderson S., Lynch M. Cyber- and traditional peer victimization: Unique relationships with adolescent well-being // *Psychology of Violence.* – 2013. – V. 3 (4). – Pp. 297–309.
10. Arehart-Treichel J. Effects of Bullying Don't End When School Does // *American Journal of Psychiatry.* – 2013. – V. 48, no. 7. – Pp. 12–17.